

Hayoti hikmat, ijodi ibrat

Xalqimizning tinch, to'kin va barqaror hayoti, yorug' kelajagi yo'lida kurashgan insonlar nomi haqli ravishda abadiyatga daxldordir. Ana shunday ijodkorlardan biri o'zbek shoiri va jamoat arbobi, O'zbekiston qahramoni, Davlat madhiyamiz matnining muallifi O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovga bag'ishlab, "Shoir bosib o'tgan hayot yo'li va ijodiga bir nazar" mavzusida ZOOM platformasi orkali ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Bugun soat 11.00.da boshlangan Onlayn-tadbirga fakul'tet dekani Sh.Narbaev va Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini X.Eshova moderatorlik qildi. Tadbirda fakul'tetning professor-o'qituvchilari, talabalar va she'riyat muxlislari, xohlovchilar, hamda Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, Halima Xudoyberdieva nomidagi ijod maktabi direktori, el ardog'idagi shoir Muhammad Ismoil tadbirimiz mehmoni sifatida ishtirok etishdi.



Abdulla Oripov ijodi zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin sahifalaridan birini namoyon etadi. Uning she'rlarida insonning chuqur ruhiy dunyosi va xalq tarixi tahlil etiladi, - deydi shoirning shogirdi Halima Xudoyberdieva nomidagi ijod maktabi direktori, el ardog'idagi shoir Muhammad Ismoil. Shuning uchun ham ular 1998 yilda "O'zbekiston qahramoni" unvoniga musharraf bo'lganligini e'tirof etib o'tdi. Abdulla Oripovning dastlabki she'rlaridagi romantik kayfiyat asta-sekin o'z o'rnini falsafiy mushohadalarga bo'shatib, shoirning hayotda ro'y berayotgan voqeа va hodisalarga munosabati faol tus oldi. Shu ma'noda «Tilla baliqcha», «Qo'riqxona», «Genetika», «Olomonga» kabi she'rlar Oripovning lirik she'riyat ufqlarini hayot muammolari tasviri hisobiga kengaytirib borayotganidan darak beradi dedi u. Biror-bir davra yo'qliki, uning she'rlari yangramagan bo'lsin. Har kuni madhiya bilan uyg'onamiz, madhiya bilan uyquga ketamiz. Ustoz xalqimiz qalbidan o'zining bebaho ijodi, o'tli satrlari, olmos fikrlari bilan o'rinni olgan ijodkor. Abdulla akaga nasib etgan baxt, martaba hamma ijodkorlarga ham nasib qilavermaydi. Xo'sh, bugun bizning ustozimiz oldidagi vazifamiz nima? Ayniqsa, yoshlarning vazifasi nima, degan savollarga shunday javob berish mumkin. Abdulla Oripov she'rlaridagi mazmun-mohiyatni, hikmatni chaqish kerak, kelajak avlodlarga bu bebaho merosni bus-butun yetkazish kerak. Aytish joizki, o'zbek xalqining milliy o'zligini anglash, mustaqillik uchun kurashlarida Abdulla Oripov she'riyati alohida o'ringa ega. Muhabbat, ona, hayot, mehr, istiqlol, ezgulik kabi turli mavzularni qamrab olgan adib she'rlari inson qalbini larzaga solmay qo'yaydi.



Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Qarshi shahri markazida Abdulla Oripov nomidagi ona tili va adabiyot fanlarini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internatining faoliyat boshlagani, maktab xiyobonida shoir haykali qad rostagani, shuningdek, maktab negizida adibning barcha asarlari va boshqa ijodkorlar kitoblaridan iborat kutubxona va muzey tashkil etilgani adib xotirasiga mehhrlı ehtirom nishonasidir deb talaba-yoshlarga ma'lumot berib o'tdi. Shuningdek, tadbirda so'zga chiqqanlar, "Erdan foydalanish" kafedrasi mudiri A.Bobojonov, institutimiz matbuot kotibi R.Jumaniyozovlar o'zlarining shoir haqidagi iliq fikrlari hamda, shoir ijodidan she'rlar o'qib barcha yig'ilganlarni xushnud etdilar. Shuningdek, talabalarimiz ham shoir ijodidan she'rlar o'qishdi. Tadbir juda qiziqarli va taassurotlar boy bo'ldi. Ushbu tadbirni tashkil etgan tashkilotchilarga o'z minnatdorchiligidizni bildiramiz.

TIQXMMI Matbuot xizmati